



Asilbek MO'YDINOV,

PhD, mustaqil tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: mr.ganiev76_fsu@inbox.ru, ORCID: 0009-0006-6050-2098

FarDU professori, DSc I.Siddiqov taqrizi asosida

HUQUQIY ONGDA QADRIYATLAR VA ONGLI HARAKATLAR UYG'UNLIGI

Annotatsiya

Maqolada huquqiy ongning aksiologik mohiyati hamda unda qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligining ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilingan. Huquqiy ongning tarkibiy elementlari, huquqiy qadriyatlar shaxs xulq-atvoriga ta'siri va huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, huquqiy ongning rivojlanishi jarayonida huquqiy qadriyatlar va ongli faoliyat o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ochib berilgan. Tadqiqot natijalarida demokratik jamiyat rivojida huquqiy ongning ijtimoiy ahamiyati va uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari asoslangan.

Kalit so'zlar: Huquqiy ong, huquqiy qadriyatlar, ongli harakat, huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat, huquqiy tafakkur, huquqiy xulq-atvor, fuqarolik jamiyati.

THE HARMONY OF VALUES AND CONSCIOUS ACTIONS IN LEGAL CONSCIOUSNESS

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical foundations of the harmony between values and conscious actions in legal consciousness. The structural components of legal consciousness, the influence of legal values on individual behavior, and their role in the formation of legal culture are examined. The study also reveals the dialectical relationship between legal values and conscious activity in the process of legal consciousness development. The findings substantiate the social significance of legal consciousness in the development of a democratic society and identify priority directions for its improvement.

Key words: Legal consciousness, legal values, conscious action, legal culture, social responsibility, legal thinking, legal behavior, civil society.

ГАРМОНИЯ ЦЕННОСТЕЙ И ОСОЗНАННЫХ ДЕЙСТВИЙ В ПРАВОВОМ СОЗНАНИИ

Аннотация

В статье анализируются социально-философские основы гармонизации ценностей и осознанных действий в правовом сознании. Рассматриваются структурные элементы правового сознания, влияние правовых ценностей на поведение личности и их роль в формировании правовой культуры. Также раскрывается диалектическая взаимосвязь правовых ценностей и осознанной деятельности в процессе развития правового сознания. В результате исследования обосновано социальное значение правового сознания в развитии демократического общества и определены приоритетные направления его совершенствования.

Ключевые слова: Правовое сознание, правовые ценности, осознанное действие, правовая культура, социальная ответственность, правовое мышление, правовое поведение, гражданское общество.

Kirish. Zamonaviy demokratik jamiyat taraqqiyotida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksak darajada shakllanganligi ijtimoiy barqarorlik, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Huquqiy ong shaxsning huquq va majburiyatlar, qonunlar, adolat, erkinlik hamda mas'uliyat haqidagi bilimlari, tasavvurlari va qadriyatlar tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois huquqiy ongning mazmuni faqat huquqiy bilimlar bilan cheklanmay, balki insonning ichki e'tiqodi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlari bilan ham uzviy bog'liqdir.

Huquqiy ongda qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligi masalasi shaxsning huquqiy xulq-atvorini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, huquqiy meyorlarga ongli ravishda amal qilishi va jamiyat hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi uning huquqiy qadriyatlarini qay darajada o'zlashtirganligiga bog'liqdir. Huquqiy qadriyatlar adolat, tenglik, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar orqali namoyon bo'lib, ular shaxsning huquqiy faoliyatini maqsadli yo'naltiruvchi ichki omil vazifasini bajaradi.

Globalashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida huquqiy ongni rivojlantirish hamda huquqiy qadriyatlarini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga qonunlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati va huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jamiyatda huquqiy tartibotni ta'minlash mumkin. Shu nuqtai nazardan, huquqiy ongda qadriyatlar va ongli harakatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida huquqiy ongning rivojlanishi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurilishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Insonning huquqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, qonunlarga hurmati va huquqiy meyorlarga amal qilish darajasi huquqiy ongning shakllanganlik ko'rsatkichlaridan biridir. Shu ma'noda huquqiy ong faqat huquqiy bilimlar yig'indisi emas, balki shaxsning huquqiy qadriyatlarga asoslangan ongli faoliyatini ham ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisadir [1]. Huquqiy ongning shakllanishida qadriyatlar tizimi muhim o'rin tutadi. Qadriyatlar insonning ijtimoiy voqelikka munosabatini

belgilovchi mezon bo'lib, uning xulq-atvori va faoliyat yo'nalishlarini shakllantiradi. Huquqiy qadriyatlar esa qonuniylik, adolat, erkinlik, tenglik va inson huquqlariga hurmat kabi tamoyillarni o'zida mujassamlashtiradi [2]. Demokratik jamiyat sharoitida huquqiy ongning rivojlanishi fuqarolarning qonunlarga bo'lgan ishonchi va huquqiy madaniyatining yuksalishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun huquqiy ongda qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligini tadqiq etish ijtimoiy-falsafiy jihatdan muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, aksiologik tahlil, dialektik metod, qiyosiy tahlil va ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy qadriyatlarga oid klassik hamda zamonaviy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini huquq falsafasi, aksiologiya va ijtimoiy falsafa nazariyalari tashkil etadi. Xususan, huquqiy ongning qadriyaviy tabiatini ochib berishda aksiologik yondashuv, uning amaliy faoliyat bilan bog'liqligini tahlil qilishda esa faoliyat nazariyasi imkoniyatlaridan foydalanildi.

Huquqiy ongning tarkibiy elementlari hamda huquqiy qadriyatlarining shaxs faoliyatiga ta'siri tizimli ravishda o'rganilib, ularning o'zaro aloqadorligi konseptual jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar va Muhokama. Huquqiy ongning aksiologik mohiyati. Huquqiy ong insonning huquqiy voqelikni aks ettirish, baholash va unga munosabat bildirish shakli sifatida namoyon bo'ladi. U huquqiy bilimlar, huquqiy his-tuyg'ular, huquqiy e'tiqodlar va huquqiy qadriyatlar tizimidan tashkil topadi [3]. Aksiologik nuqtai nazardan huquqiy ong huquqiy qadriyatlarining shaxs tafakkuri va faoliyatida aks etish jarayonidir. Adolat, qonuniylik, erkinlik va mas'uliyat kabi qadriyatlar huquqiy ongning mazmunini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi [4]. Huquqiy qadriyatlar shaxsning huquqiy voqelikni baholash mezonlarini shakllantiradi. Natijada inson huquqiy meyorlarni nafaqat tashqi majburiyat sifatida, balki ichki ehtiyoj va e'tiqod sifatida qabul qila boshlaydi.

Huquqiy qadriyatlar va ongli harakatlar dialektikasi. Huquqiy ongning amaliy ifodasi ongli harakatlarda namoyon bo'ladi. Huquqiy qadriyatlar shaxsning maqsadlari va faoliyat yo'nalishlarini belgilasa, ongli harakatlar ushbu qadriyatlarining amaliy ro'yobga chiqish shakli hisoblanadi [5]. Dialektik yondashuvga ko'ra, qadriyat va faoliyat o'zaro bog'liq hamda bir-birini taqozo etuvchi hodisalardir. Huquqiy qadriyatlarisiz ongli huquqiy faoliyat shakllanmaydi, ongli faoliyatsiz esa huquqiy qadriyatlar amaliy mazmun kasb etmaydi. Shaxs qonunlarga amal qilayotganida uning xatti-harakati ikki omil – huquqiy bilim va huquqiy qadriyatlarining uyg'unligi asosida yuzaga keladi. Aynan ushbu uyg'unlik huquqiy xulq-atvorning barqarorligini ta'minlaydi [6].

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'zaro bog'liqligi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Huquqiy ong shaxsning huquqiy voqelikka nisbatan ichki munosabatini ifodalasa, huquqiy madaniyat ushbu munosabatning amaliy faoliyatda namoyon bo'lish shaklini aks ettiradi. Shu sababli huquqiy ongning rivojlanish darajasi jamiyatdagi huquqiy madaniyat holatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi [7]. Huquqiy madaniyatning shakllanishi fuqarolarning huquqiy bilimlari, huquqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabati va huquqiy meyorlarga amal qilish darajasiga bog'liq. Shaxs huquqiy qadriyatlarini anglab yetgan sari ongli huquqiy faoliyati ham ongli va maqsadga yo'naltirilgan xarakter kasb etadi. Ayrim tadqiqotchilar huquqiy madaniyatni huquqiy ongning amaliy natijasi sifatida talqin qiladilar. Bunday yondashuvga ko'ra, qonunlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati

va huquqiy faollik huquqiy ongning amaliy ko'rinishlari hisoblanadi [8].

Demokratik jamiyatlarda huquqiy madaniyatning yuksak darajada rivojlanganligi fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Demokratik jamiyat rivojida huquqiy qadriyatlarining o'rni. Huquqiy qadriyatlar demokratik jamiyatning ma'naviy va institutsional asoslarini tashkil etadi. Ular fuqarolarning qonunlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va huquqiy tartibotni saqlashga xizmat qiladi [9].

Adolat demokratik jamiyatning eng muhim huquqiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Adolat tamoyili insonlarning huquq va erkinliklarini teng ravishda ta'minlashni nazarda tutadi. Shu sababli huquqiy ongda adolat qadriyatining shakllanishi fuqarolarning huquqiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Erkinlik ham huquqiy ongning asosiy qadriyatlaridan biridir. Erkinlik shaxsning qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan foydalanish imkoniyatini bildiradi. Biroq erkinlik mas'uliyat bilan uyg'unlashgandagina ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois huquqiy ongda erkinlik va mas'uliyatning uyg'unligi demokratik taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi [10].

Huquqiy qadriyatlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular fuqarolarning huquqiy xulq-atvorini ichki motivatsiya asosida boshqaradi. Qonunlarga faqat jazodan qo'rqib emas, balki ularni ijtimoiy adolat va umumiy manfaatning ifodasi sifatida qabul qilish huquqiy ongning yuksak darajasidan dalolat beradi.

Huquqiy ongda qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligini ta'minlash mexanizmlari. Huquqiy ongning samarali shakllanishi uchun huquqiy qadriyatlar va ongli harakatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash zarur. Ushbu jarayon quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

Birinchidan, huquqiy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish lozim. Huquqiy bilimlarning keng tarqalishi fuqarolarning huquqiy qadriyatlarini chuqur anglashiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, huquqiy targ'ibot va huquqiy ma'rifat ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari bu borada muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, huquqiy adolat va qonun ustuvorligini amalda ta'minlash zarur. Agar qonunlar adolatli qo'llanilsa, fuqarolarning huquqiy qadriyatlarga bo'lgan ishonchi ortadi va ular ongli ravishda huquqiy meyorlarga amal qila boshlaydilar [11].

To'rtinchidan, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish lozim. Fuqarolik faolligining ortishi huquqiy ongning rivojlanishiga va huquqiy qadriyatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari huquqiy ongning shakllanishi faqat huquqiy bilimlar bilan emas, balki huquqiy qadriyatlarining shaxs dunyoqarashiga chuqur singdirilishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Huquqiy ongning rivojlanishi jarayonida qadriyatlar va ongli harakatlar bir-birini to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy demokratik jamiyat sharoitida huquqiy ongning rivojlanishi fuqarolarning huquqiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Huquqiy qadriyatlarga asoslangan ongli faoliyat jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, globallashuv va axborotlashuv jarayonlari huquqiy ongning mazmuniga ham yangi talablarni qo'yimoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va yangi huquqiy qadriyatlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar huquqiy ongning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Bu esa huquqiy qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligini mustahkamlash uchun qulay ijtimoiy muhit yaratmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, huquqiy ongda qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan biridir. Huquqiy qadriyatlar shaxsning qonunlarga bo'lgan munosabatini, huquqiy mas'uliyatini va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lsa, ongli harakatlar ushbu qadriyatlarning amaliy ifodasini namoyon etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqiy bilimlarning mavjudligi o'z-o'zidan huquqiy xulq-atvorni kafolatlamaydi. Shaxsda adolat, qonun ustuvorligi, inson huquqlariga hurmat va fuqarolik mas'uliyati kabi huquqiy qadriyatlar shakllangandagina huquqiy meyorlarga ongli ravishda rioya qilish ehtiyoji yuzaga keladi. Shu bois huquqiy tarbiya jarayonida huquqiy bilimlar bilan bir qatorda qadriyatli yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

huquqiy ong huquqiy bilimlar, huquqiy qadriyatlar va huquqiy faoliyatning birligidan tashkil topuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa hisoblanadi;

huquqiy qadriyatlar shaxsning huquqiy xulq-atvorini belgilovchi asosiy ma'naviy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi;

ongli harakatlar huquqiy qadriyatlarning amaliy ifodasi bo'lib, ularning real hayotdagi namoyon bo'lish shaklini tashkil etadi;

huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;

demokratik jamiyat rivojida adolat, erkinlik, qonuniylik va mas'uliyat kabi huquqiy qadriyatlarning shakllanishi alohida ahamiyatga ega;

huquqiy ta'lim va tarbiya, huquqiy ma'rifat hamda qonun ustuvorligini ta'minlash huquqiy ongda qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligini mustahkamlashning muhim omillari hisoblanadi.

Shunday qilib, huquqiy ongda qadriyatlar va ongli harakatlar uyg'unligi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy davlat qurish hamda jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashning muhim ijtimoiy-falsafiy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Alekseev S.S. Teoriya prava. Moskva: BEK, 2019.
2. Nersesyans V.S. Filosofiya prava. Moskva: Norma, 2021.
3. Matuzov N.I., Malko A.V. Teoriya gosudarstva i prava. Moskva: Delo, 2020.
4. Hegel G.W.F. Filosofiya prava. Moskva: Yurayt, 2022.
5. Kant I. Metafizika нравов. Moskva: Akademicheskii proyekt, 2018.
6. Rawls J. A Theory of Justice. Cambridge: Harvard University Press, 1999.
7. Habermas J. Between Facts and Norms. Cambridge: MIT Press, 1996.
8. Weber M. Economy and Society. Berkeley: University of California Press, 1978.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023.
10. O'zbekiston Respublikasi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-788. 08.08.2022.
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022.
12. Ganiyev B.S. Huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Farg'ona, 2024. – B. 115–120.